



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**



## ERKIN A'ZAM QISSALARIDA J.OSTIN TASNIFIDAGI NUTQIY AKTLAR VOSITASIDA YUZAGA KELGAN IRONIYALAR TAHLILI

### ANALYSIS OF IRONIES MANIFESTED THROUGH J.OSTIN'S CLASSIFICATION OF SPEECH ACTS IN ERKIN A'ZAM'S SHORT STORIES

**Tursunova Sojidxon Axmadjon qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch  
doktoranti

E-mail: [sojixatursunova0525@gmail.com](mailto:sojixatursunova0525@gmail.com)

ORCID: 0009-0009-7194-1987

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./QWMB1203](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./QWMB1203)

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada nutqiy akt nazariyasi va uning paydo bo'lishi, nutqiy akt turlari, nutqiy aktlarning tasnifi (J.Ostin tasnifi asosida), ironiya, uning turlari, ironik mazmun va ironik mazmun ifodalash usullari haqida ma'lumot berilgan. Nutqiy aktlarning ironik mazmuni yuzaga chiqarishdagi o'rni xususida so'z boradi. J.Ostin tasnifidagi nutqiy aktlar vositasida ifodalangan ironiya va uning turlari tahlil qilingan bo'lib, tahlillar Erkin A'zam qissalaridan olingan parchalar bilan boyitilgan.*

**Kalit so'zlar:** *nutqiy akt nazariyasi, nutqiy akt turlari: verdiktiv aktlar, ekzersitivlar, komissivlar, bexabitivlar, ekspozitiv aktlar, ironiya, ironik mazmun, ironiya turlari va boshqalar.*

**Annotation.** This article provides information on speech act theory and its origins, types of speech acts, the classification of speech acts (based on J.Ostin's classification), irony, its types, ironic content and methods of expressing ironic content. The role of speech acts in revealing ironic content is discussed. Irony expressed through speech acts in J.Ostin's classification and its types are analyzed, with the analyses enriched by excerpts from Erkin A'zam's short stories.

**Keywords:** speech act theory, types of speech acts: verdictives, exercitives, commissives, behabitives, expositives, irony, ironic content, types of irony and others.

Pragmatikaning XX asrning ikkinchi yarmidagi rivoji nutqiy akt nazariyasining to'liq ko'rinishdagi lingvofalsafiy ta'limot sifatida shakllanishi bilan bog'liqdir. Nutqiy akt tushunchasi oldingi davrlarda ham V.Humboldt, Sh.Balli, K.Byuller, E.Benvenist, M.Baxtin kabi olimlarning ta'limotlarida mavjud bo'lgan, ammo nutqiy akt nazariyasi to'liq bir ta'limot sifatida ingliz mantiqshunosi J.Ostin, amerikalik

psixolog J.Syorl va boshqalarning ishlarida shakllandi. Nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir.

Demak, nutqiy akt – ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma'nosining so'zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan “boyitilishi”, idrok etilishi natijasidir [Safarov, 2018: 77].

Nutqiy aktning yuzaga chiqishida adresant va adresatning sotsiologik maqomi, kommunikativ niyat, so'zlovchining kayfiyati, ruhiy vaziyati, ijtimoiy holati muhim hisoblanadi.

Nutqiy aktlarni tasnifiy guruhlariga ajratish istagini J.Ostin Garvardda o'qigan ma'ruzalarining o'n uchinchisida bildirgan edi. Olim taklif qilgan tasnif besh guruhdan iborat va bu guruhlanish illokutiv fe'llar ma'nosiga asoslanadi:

1. **Hukm aktlari (Verdiktiv aktlar).** Verdikt atamasi yuridik sohaga oid so'z bo'lib, “...yur.verdikt, hukm (sud hukmi, hukmnoMa); обвинительный вердикт – ayblash hukmi; оправдательный вердикт – oqlash hukmi” kabi ma'nolarda qo'llaniladi. Verdikt so'zi ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, haqiqatni aytish degan ma'noni anglatadi [Hakimov, 2020:58].

*Holbuki, bunday bo'lmasligi aniq – deylik, barmoq qurib golsa yoki biror falokat bilan uzilib tushsa, qayta jonlanib, o'sib chiqmaydi-ku! “Oxiri nima bo'ladi?” deya gangib so'raganimda daroz do'xtir “Oxiri... nima qilasiz, ko'nikasiz-da. Boshqa iloji yo'q”, deb hukm o'qigan edi* [Erkin A'zam, 2023:69].

Ushbu parchada asar qahramoni Erkin aka safar davomida o'zini bezovta qilib kelayotgan xastalikka shifo topish maqsadida shifokorlar bilan uchrashadi. Unga “Koxlear nevrity” tashxisini qo'yishgan va bu dardning davosi yo'q ekanligini aytishgan edi. Bu shunday hastalikki, unda insonning qulog'i tinimsiz shang'illaydi. Bu azobga dosh berish shu qadar qiyinki, hatto bardoshi yetmay o'z joniga qasd qiluvchilar ham topiladi. Shu vajdan Erkin akaning ham bormagan joyi qolmaydi. Bu masalada har turli tabib, jodugar, afsungargacha murojaat qiladi. “Uzilib tushgan barmoq qayta o'sib chiqmaydi-ku!” jumlasini orqali bu kasallik bedavo ekanligiga shama qilinmoqda. Demak, keltirilgan parchada ironik mazmun ifodalash usullaridan shama ishtirok etgan. Ironiya turlaridan situativ ironiya hisoblanib, jumladan hukm mazmuni anglashiladi. Shifokorlar tomonidan berilgan oxirgi xulosa – qo'yilgan tashxis hukm sifatida verdiktiv aktlar qatoriga kiradi [Hakimov, 2020:59]. Keltirilgan parchada tasdiq, so'roq, hukm aktlari mavjud.

2. **Ekzersitivlar** (lat. Exercitation – “ijro etmoq”, “bajarmoq”); Bu nutqiy harakatlar mazmunida o'z huquqidan, hukmronligidan foydalanib, buyruq berish, majbur qilish, maslahat berish, ogohlantirish ma'nolari ifoda topadi: “Seni

lavozimingdan bo'shataman”; “Yaxshisi, telefon qilma”; “Chiqib ket”; “Munofiqdan ehtiyot bo'l” [Safarov, 2018:89]. Undash aktlarining amalga oshishida nutq ishtirokchilaridan biri ikkinchisiga nisbatan farqlanuvchi sotsial maqomga aniqrog'i, qaysidir jihati bilan ustunlik belgisiga ega bo'ladi [Hakimov, 2020:60].

– *Bo'pti, bo'lmasa boshladik. Hamma o'z joyida o'tiradi. Kursdoshi qanday javob berishini ko'rsin-da. Lekin, aytib qo'yay, bittadan bo'lsa ham anoyi savollar emas, – dedi u ogohlantirib. – Xo'-o'sh, kim aytadi – Mashrabning oti nega – Mashrab?*

*Bo'ston gul-gul yashnab qo'l ko'tardi.*

– *Marhamat.*

– *Onasining qornida yig'lagani uchun! – deya yanada gul-gul yashnab javob berdi Bo'ston.*

*Ana, darsga faol qatnashishning, leksiylarni muntazam yozib borishning foydasi! – dedi domla kimgadir shama qilayotgandek. – Daftarchangizni oling, singlim [Erkin A'zam, 2025:52].*

Dars jarayonidan olingan diologda ironiyaning situativ ironiya turi qatnashgan. Ironik mazmun ifodalash usullaridan shamani uchratishimiz mumkin. Yuqoridagi parchani bir o'qishdayoq buni bilish mumkin. Bu haqida bizga “shama qilayotgandek” leksemasi xabar berib turibdi. “Bo'pti, bo'lmasa boshladik” jumlasida imtohon ekanligiga, “Mashrabning oti nega Mashrab?” savolida adabiyot darsiligiga ishora mavjud. Ustoz “leksiyalarni muntazam yozib borishning foydasi” haqida so'z yuritayotganidan bilishimiz mumkinki, talabalar orasida dars qoldiradigan, leksiylarni yozishdan bosh tortadiganlari ham bor. Parchada buyruq, so'roq, ogohlantirish, kesatiq, mamnunlik nutqiy aktlari mavjud. Ular implitsit va eksplitsit tarzda namoyon bo'lgan.

*Gal menga yetganda Ahmadxonov kinoyali iljaydi:*

– *Iya, o'zimning og'aynim-ku! Keling, keling. Sizni ham ko'rar kun bor ekan-a, buni qarang! – So'ng birdan jiddiy tortib, muloyim-xunuk ohangda maslahat soldi: – Nima qildik endi, uka, darsga mutlaqo qatnashmagansiz-ku? Yoki qatnashganmisiz? Qatnashganman, deng, bir og'iz – hoziroq, so'ramasdan baho qo'yib beraman.*

*Sadaqa tutqazmoqchi! Miq etmay, bezrayib o'tiraverdim [Erkin A'zam, 2025:54].*

Ushbu parchada situativ ironiya ishtirok etgan bo'lib, ironik mazmun ifodalash usullaridan esa kinoya (kinoyali iljaydi), mazax (o'zimning og'aynim-ku, sizni ham ko'rar kun bor ekan-a, buni qarang! So'ramasdan baho qo'yib beraman, hoziroq) va zaharxandalik (sadaqa tutqazmoqchi! bezrayib) mavjud. Qolaversa, ermak, kesatiq, piching, maslahat, so'roq, va'da nutqiy aktlari uchraydi.

*Biroq, valine'matim aytishi mumkin bo'lgan boshqa bir gap meni qiynaydi:  
“Uloqqa kirgan chavondozi boshini ham o'ylagani ma'qul – uloq mingta, bosh esa  
bitta!”*

*Bitta, bit-tagina!*

*...Darvoqe, Mashrabning oti nega – Mashrab? [Erkin A'zam, 2025:90].*

Sharttiki talabani nutqidan olingan parchada ustozining maslahati aks etgan bo'lib, “valine'mat” deya ardoqlaganiga qaraganda, bu insonga hurmati baland. Parchada hurmat, maslahat, shama, so'roq nutqiy aktlari ishtirok etgan. Ular, asosan, (so'roqdan tashqari) implitsit tarzda ifodalangan. Ironik mazmun ifodalash usullaridan shama, ironiya turlaridan situativ ironiya uchraydi. “Bitta, bit-tagina!” deya urg'u berish, alohida ta'kidlash orqali Shodibekovning fe'li, qaysarligi, odamlarga sevimli “ko'zgu”sini tutishdan charchamasligi va boshini doim muammolarga tiqib yurishiga shama qilinayotgan bo'lsa; asarni aynan “Mashrabning oti nega – Mashrab?” so'roq gapi bilan yakunlash orqali ijodkorning barchaga ibrat bo'la oladigan hayot yo'li, har qanday o'quvchini o'yga toldiradigan, mushohadaga chorlaydigan vaziyatlar qolib, shu qadar jo'n savollar bilan o'ralashib qolinganiga nisbatan kinoya qilinmoqda.

3. Komissivlar (Qiyoslang: ing. commitment – “majburiyat”) mazmunida va'da berish va boshqa turdagi majburiyatlar ifodalanadi: “Ertaga kelishga va'da beraman”; “Rejani albatta bajarman”; “Burchimni bajarishga qasamyod qilaman”; “Jarimani to'lash kafolatini beraman”; “Fikringizni qo'llab-quvvatlayman” [Safarov, 2018:89].

Bu termin aslida harbiy sohaga oid tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilgan va nutqiy aktlar mazmuni, ko'pincha, harbiylar nutqiga aloqador ma'nolarni namoyon etgan. Bu aktlar o'z nomiga ko'ra nutq ishtirokchilarining o'zaro munosabatida “majburman”, “va'da beraman”, “so'z beraman”, “ont ichaman”, “kafolatlamog”, “rejalashtirmog” kabi ma'nolar bilan yuzaga chiqadi [Hakimov, 2020:60].

*– Surxondaryodek joydan kelib bu yerda nima ish qilib yuribsiz?*

*– O'qiyapman.*

*– Darlarga kirmay o'qiyapman, deng? Zo'r, zo'r! – Ahmadxonov yana Rahmatilladan ko'mak so'radi: – Bu og'aynimiz boshqa fanlardan qalay? Ularga ham qatnashmay o'qiydilar mi?*

*Xayriyat, Rahmatilla bu gal insof qildi:*

*– Boshqalaridan tuzuk. Yaxshi o'qiydi o'zi.*

*– Tushunarli. Xo'-o'sh, qani ayting-chi, og'ayni, yaxshi o'qib nimalarni o'rganyapsiz?*

*– O'zbek adabiyoti tarixini, – dedim pinagimni buzmay. Bilmayman, nima xayolda og'zimdan chiqqani shu bo'ldi.*

*Ho! Shunday deng? I-ihm. – Ahmadxonovning qoshlari chimirildi. – Unda hozir ko'ramiz. Ko'rami-iz. Keling, og'ayni, sizni qiynab o'tirmay bunday qilaylik: men bitta savol bersam, bittagina! Shunga javob berolsangiz – marra sizniki. Erkakacha gap* [Erkin A'zam, 2025:54-55].

Yuqorida keltirilgan diolog mazmunidan, uning ustoz va talaba o'rtasidagi suhbat ekanligini bir qarashdayoq payqash qiyin emas. Qolaversa, gap imtihon borasida ekanligi ham ma'lum (“men bitta savol bersam, bittagina!"). Keltirilgan parchada ironik mazmun ifodalashning ham, nutqiy aktning ham bir necha turlari mavjud. Ironiyalarning barchasi situativ ironiya turiga mansub bo'lib, ironik mazmun ifodalashning kinoya (“Surxondaryodek joydan kelib bu yerda nima ish qilib yuribsiz?”), piching (“Darslarga kirmay o'qiyapman, deng? Zo'r, zo'r!"), kesatiq (“Ularga ham qatnashmay o'qiydilmarmi?”), mazax (“yaxshi o'qib nimalarni o'rganyapsiz?”), zaharxandalik (“O'zbek adabiyoti tarixini”), ermak (“Ho! Shunday deng? I-ihm”) kabi turlarini kuzatishimiz mumkin. Parchada so'roq, taajjub, ermak, norozilik, maslahat, ogohlantirish, va'da nutqiy aktlari mavjud bo'lib, ular verbal va noverbal vositalar orqali implitsit hamda eksplitsit tarzda ifodalangan.

4. Bexabitivlar (ikki o'zakning – behave “o'zini tutmoq” va habit “odat” – birikishidan yasalgan). Jamoada o'zini tutish, biror kishi xatti-harakatiga munosabat bildirish ma'nolariga ega bo'lgan nutqiy harakatlardir: “Yordaming uchun rahmat”; “Salomat bo'ling”; “Xafa bo'lmang”; “Oy borib, omon kel” kabilar [Safarov, 2018:89].

M.Hakimov bexabitiv aktlarga quyidagicha ta'rif bergan: “Bu termin inglizcha “behavior” so'zidan olingan bo'lib, “axloq” degan ma'noni anglatadi. N.D.Arutyunova ta'limotida bu aktlarni sotsial etiket formulalari deb nomlash ko'zga tashlanadi. Nutqiy aktlarning bu turida nutq vaziyati bilan bog'liq holda so'zlashuvchilarning o'zaro munosabati nazarda tutiladi. Bu aktlar mazmuni “tabrik”, “uzr”, “hamdardlik”, “maqtov”, “minnatdorlik”, “tanqid”, “ayblov” kabi paradigmatic ma'no qatoriga ega. Bexabitiv aktlar bugungi kun nuqtayi nazaridan qaralganda, so'zlovchining nutqiy axloqini ifodalovchi kontekstlarda namoyon bo'ladi” [Hakimov, 2020:61].

*Qishki ta'tilda uyga borib, tog'am xotinini haydaganini eshitdim. Xotinini haydagach, ertasigayoq mo'ylovini oldiribdi va g'arch etigini kiygancha bashang bo'lib ko'cha aylanishni odat qilibdi. Qarasam, qo'li orqada, kinoteatr maydonida savlat to'kib turgan ekan. “Tog'a-a, – dedim yoniga borib, – bu-u, mo'ylov ko'rinmaydi?” “Qirdik, jiyan, qirdik”, dedi tog'am ichki bir mamnuniyat bilan iyagini silab. “Nima, oq oralab qolganmidi?” “Yo'g'-e! Ortiqcha mo'y – tanga yuk, deb eshitdik”. “Shunday ekanmi, ha-a. Endi bir durbin toping, – dedim maslahat*

*berib, – o'tgan-ketgan qiz-juvoni tomosha qili-ib yurasiz. Bo'yinga osi-ib... Maza-da!*” “*Andishani tupurib tashlab, rahmatli bobongizdek nuqul qalampir chaynab yurasiz-a, jiyan*”, *deya istehzoli iljaydi tog'am* [Erkin A'zam, 2025:11-12].

Tog'a va jiyan suhbatidan olingan ushbu parchada ironiyaning gradual ironiya turi ishtirok etgan. Buni kinoyadan boshlangan suhbat zaharxandalik va istehzo bilan yakunlanishida ko'rishimiz mumkin. Ironik mazmun ifodalashning esa quyidagi turlari kuzatiladi: kinoya (*bu-u, mo'ylov ko'rinmaydi?*), mazax (“*Nima, oq oralab qolganmidi?*”), kesatiq (“*Shunday ekanmi, ha-a*”), zaharxandalik (“*Endi bir durbin toping, – dedim maslahat berib, – o'tgan-ketgan qiz-juvoni tomosha qili-ib yurasiz. Bo'yinga osi-ib... Maza-da!*”), shama (“*Andishani tupurib tashlab, rahmatli bobongizdek nuqul qalampir chaynab yurasiz-a, jiyan*”), istehzo (“*istehzoli iljaydi tog'am*”). Nutqiy akt turlaridan so'roq, mamnuniyat va maslahat nutqiy aktlari kuzatiladi. Kommunikatsiya ishtirokchilarining nutqidan, o'zini tutishidan nutqiy axloqi qay darajada ekanligi sezilib turibdi.

–*Mening bir tanishim bor. Sizga o'xshab u ham shoirlik qiladi. Lekin she'rlari juda bemaza, bachkana...*

–*Endi-i, do'stim, ijod – murakkab jarayon. Bilasizmi...*

–*Bilaman! Ammo, o'sha tanishim yozgan telba-teskari satrlarning adabiyotga, ijod tushunchasiga nima aloqasi borligiga aqlim yetmaydi. Bu muqaddas so'zni ba'zi birovlar xor qilyapti-da. Ijod qilgan deb Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhorlarni aytsa bo'ladi. Bilishimcha, siz fan kandidatisiz, shundaymi? O'sha tanishim ham kandidat. Doktorligini tayyorlab, mo'maygina maoshni olib yuraversa bo'lmasmikan, deyman o'zimcha. Qiziq, go'yo u she'r yozmasa, adabiyot g'ariblashib qoladiganday! Bu – oddiy adabiyot ixlosmandlarining fikri, albatta. Adabiyot muxlisi sifatida men uni xalqning dushmani, degim keladi...*

–*Nima-nima?! – U titragancha ko'zoynagini qo'lga oldi.*

*Payrovni boy berdim – gap egasini topgan edi. Oshkora hujumga o'tishdan o'zga iloj qolmadi:*

–*Yo'q, men bunday demoqchiman: siz ertaga ellikka kirasiz, biror gazeta yoki jurnalga redaktor bo'lasiz. Ham shoir, ham olim, deb ko'taradilar-da. O'shanda she'riyat torlik qilib prozaga, katta janrlarga qo'l urasiz. Kallangizga kelgan gapni yozib chiqaverasiz – jurnalni, gazeta qo'lingizda, nashriyotlar bilan aloqangiz zo'r. Sho'rlik kitobxonlar esa, yozganlaringizni o'qib, “adabiyot deganlari shu bo'lsa kerak, bosilib chiqibdi-ku,” deb yurishaveradi. Bora-bora ularning didi sizga moslashadi. “Adabiyotga xizmat qilish” bahonasida kitobxon saviyasini orqaga tortayotganingizni xayolingizga ham keltirmaysiz. Xo'sh, bunday odamni, sizningcha, kim deb atash kerak?*



– *Kechirasiz-u, uka, kayfingiz borga o'xshaydi, – dedi u nihoyat bo'g'ilib.*  
– *Bayramlarda oz-moz ichaman.*  
– *Bugun bayram qilgan ekansiz-da?*  
– *Bayram qilsam arziydi, – dedim Raxshonaga nazar tashlab. U menga qiziqish bilan tikilganча beozor kulimsirab turardi. – Afsuski...*  
– *Afsuski, bayramingizni men buzib qo'ydim, shundaymi?*  
*Nachora, – dedim, – sizlarning kasbingiz shu. Sizlar bayramlarni harom qilish uchun tug'ilgansizlar aslida. – Bu gapni aytishga aytdim-u, uning hozir qiz bola oldida meni yakson qiladigan bir gapga chog'lanib og'iz juftlayotganini ko'rdim va shosha-pisha Raxshonaning tirsagidan oldim. – Omon bo'lsinlar!* [Erkin A'zam, 2025:84-85].

Ushbu parcha ironiya turlaridan gradual ironiyaning yorqin namunasi bo'la oladi. Bachkana she'rlardan boshlangan suhbat “xalq dushmani” deya tamg'a bosilishi darajasigacha yetib boradi. Ironik mazmun ifodalash usullaridan sarkazm ishtirok etgan. Nutqiy akt turlaridan so'roq, norozilik, boshqalar xatti-harakatiga baho berish aktlari uchraydi. Adresantning nutqida uning nutqiy axloqi yaqqol ko'zga tashlangan. Masalan, “*Adabiyot muxlisi sifatida men uni xalqning dushmani, degim keladi...*” degan gapidan ma'lumki, so'zlovchi adabiyotga begona, adabiyotdan yiroq shaxs emas. Uning asl ijod namunalariga, ijodkorlarga ixlosi baland. She'rlariga baho bera olishiga qaraganda bilimi ham chakana emas. Tinglovchining she'rlarini ochiqchasiga tanqid qilishiga qaraganda, Shodibekovning tabiati sharttiki, qaysar, “boshingga qilich kelsa ham rost so'zla” qabilida ish tutuvchilardan. Shu boisdan bo'lsa kerak saviyasi past adabiyotlar kitobxonlarning didiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini tanqid qilmoqda: “*Sho'rlik kitobxonlar esa, yozganlaringizni o'qib, “adabiyot deganlari shu bo'lsa kerak, bosilib chiqibdi-ku,” deb yurishaveradi*”. Adresantning tabiatidagi boshqalarning aybini yuziga ochiq aytish, boshqalarga ko'zgu tutish, terslik xususiyatlarini “*Sizlar bayramlarni harom qilish uchun tug'ilgansizlar aslida*” deya kommunikativ maqsadini oshkora namoyish etganidan bilishimiz mumkin.

5. Ekspozitiv aktlar. Bu atama fransuzcha “ekspoze” so'zidan olingan bo'lib, bayon qilmoq ma'nosini anglatadi. Nutqiy aktlarning bu turi xabar yoki tushuntirishni dalil va faktlar bilan isbotlashdan iborat bo'ladi. Ekspozitiv aktlarda so'zlovchi munozara, muhokama kabi nutqiy diskussiyalarning ishtirokchisi sifatida ko'zga tashlanadi [Hakimov, 2020:62]. Ekspozitivlar (ing. exposition – “izoh, tavsif, tushuntirish”) muloqot jarayonida so'zlovchi o'z fikrini izohlashi, tasdiqlashi va tushuntirish jarayonida yuzaga keladigan nutqiy aktlardir: “Kasal ekanligingga

gumonim bor”; “Kasal bo‘lishim mumkin”; “Qarzdorligingni eslatmoqchiman [Safarov, 2018:89-90].

*Mana, bugun – fransuz tilidan sinov, Dilora Jo‘rayevna mendan boplab o‘chini oladi.*

*Kutganimdek, u hammani bir-bir chaqirib, sinovdan o‘tkazgach, chiqarib yuboraverdi. Oxirida yolg‘iz men qoldim.*

*– Ha, Shodibekov, – dedi u, – kelmaysizmi? Yoki menga munosibroq kasb qidirish bilan bandmisiz?*

*– Yo‘g‘-e, – deya kulimsiragancha borib ro‘parasidan joy oldim.*

*U yuzimga sinovchan boqarkan, kutilmaganda:*

*Men sizga zachyot qo‘yib beraman, – dedi fransuzchalab. Keyin o‘zbek tiliga o‘tdi: – O‘shandagi samimiyatingiz uchun! Dangalchiligingiz menga yoqdi. To‘g‘ri payqabsiz, rostdan ham men boshqa sohaning odami bo‘lsam kerak. Buni o‘zim ham bilaman. E, qo‘ying, bu uzoq tarix... Lekin fransuz tilini yaxshilab o‘rganishingiz lozim. Balzak shu tilda ijod qilgan, Flober, Mopassan... qolaversa, bu muhabbat tili... [Erkin A‘zam, 2025:50-51].*

Keltirilgan parchaning “sinov”, “zachyot”, “fransuz tili” leksemalaridan imtihon vaqtidagi ustoz va talabaning suhbatlari ekanligi ma‘lum. Ushbu nutq parchasida so‘roq, xabar, va‘da, kinoya, tushuntirish, izohlash, dalillash nutqiy aktlari ishtirok etgan. Ironiyaning situativ ironiya turi ko‘zga tashlanadi. U implitsit tarzda ifodalangan. Ironik mazmun ifodalashning kinoya (*Ha, Shodibekov, – dedi u, – kelmaysizmi?*), kesatq (*Yoki menga munosibroq kasb qidirish bilan bandmisiz?*), shama (*O‘shandagi samimiyatingiz uchun!*) kabi turlari uchraydi.

*Mushuk nega yaralgan – odamning yo‘lini kesib, dilini xira etish uchun emasmi? Javliboy mushukka o‘xshaydi.*

*– Bo‘rimi, tulki? – dedi u meni masxara qilmoqchidek battar ishshayib.*

*– Tevat! – dedim tishlarimni g‘ijirlatib va tomog‘im qoq bo‘lib ketgani esimga tushib, o‘sha tomon yurdim. Suvni endi og‘zimga olib borganimda Javliboy:*

*Ha, bo‘lmadimi? – dedi soxta mehribonlik bilan. O‘qrayganimni ko‘rib, nigohimga dosh berolmay ko‘zini olib qochdi, yonidagi qizlarga yuzlanib nimadir deya sayray boshladi [Erkin A‘zam, 2025:59].*

Kommunikatsiya ishtirokchilarining nutqidan ular tengdosh ekanligi ma‘lum. Parchada ironiyaning situativ ironiya turi ishtirok etgan. Ironik mazmun ifodalashning esa masxara (*Bo‘rimi, tulki? – dedi u meni masxara qilmoqchidek battar ishshayib.*), zaharxandalik (*Tevat! – dedim tishlarimni g‘ijirlatib va tomog‘im qoq bo‘lib ketgani esimga tushib, o‘sha tomon yurdim.*) turlari kuzatiladi. Javliboyning imtihondan so‘ng hammaning bahosini so‘raydigan odati bor bo‘lib, bo‘rimi yoki tulkimi deya barchani

savolga tutadi. Buning ma'nosi beshmi yoki to'rtmi degani. Bu savol Shodibekovning g'ashiga tegadi, unga zaharxandalik bilan tevat deya javob beradi. Tevat shevaga xos so'z hisoblanib, “O'zbek tilining izohli lug'ati”da bu so'zga shunday ta'rif beriladi: “Tevat shevada it. Tevatga suyak tashlaganingdan keyin o'z holiga qo'y, qanday g'ajisa, shunday g'ajisin. “Qanotli so'zlar”. To'rt tomon yeliga ko'kragi ochiq, Eshakday tevat ham yotibdi beun. Mirtemir” [O'TIL 4-tom, 2006:46]. Parchada izohlash, xabar, so'roq, g'azab nutqiy aktlari kuzatiladi.

– *Tovarish Xon Man Men juda kamtarin odam, – deydi suratlarga izoh berib yonimizda yurgan tovarish Yak. – Qarang, hamisha xalq ommasi bilan birga!*

– *Juda-juda, – deyman uning gapini ermakka ma'qullab. – Ko'rinib turibdi. Bunaqasi bo'lmagan!*

*Sezgir tovarish Yak yalt o'girilib, shunda menga ilk bor ishonchsizlik bilan yovqarash qilib qo'yadi* [Erkin A'zam, 2023:30].

Ushbu parchada ironiyaning situativ ironiya turi ishtirok etgan bo'lib, ironik mazmun ifodalashning quyidagi turlari kuzatiladi: ermak (*Juda-juda, – deyman uning gapini ermakka ma'qullab.*), mazax (*Bunaqasi bo'lmagan!*). Nutqiy akt turlaridan izohlash, faxrlanish, g'azab aktlari ishtirok etgan. Ular verbal va noverbal vositalar orqali ifodalangan.

Xulosa qilib aytganda, ironik mazmunning yuzaga chiqishida nutqiy akt turlarining o'rni beqiyos. Yuqorida Erkin A'zamning “Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati”, “Otoyining tug'ilgan yili” qissalaridan olingan parchalar nutqiy akt turlarining J.Ostin tasnifi asosida tahlilga tortildi. Tanlangan qissalarda verdiktiv aktlar nisbatan kamroq qo'llanilgan. Ekzersitivlar, komissivlar, bexabitivlar, ekspozitiv aktlar nisbatan faolroq qo'llanilgan. Asarda nutqiy aktlar qahramonlarning xarakteri, ijtimoiy holati, ruhiy vaziyatini ochib berishga xizmat qilgan. Ular asarning badiiy qimmatini yanada oshirgan.

### Adabiyotlar:

1. Erkin A'zam. Otoyining tug'ilgan yili. – Toshkent: 2025. – 126 b.
2. Erkin A'zam. Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. – Toshkent: 2023. – 158b.
3. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: 2018. – 320 b.
4. Ҳақимов М. Нутқий актлар назарияси. – Фарғона: 2020.– 172 b.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2006. 4-том. – 606 b.
4. Mavlyanov, S. (2023). O'zbek tili diplomatik terminlarining semantik tasnifi. *Uzbekistan: Language and Culture*, 4(4).

5. Muhammadiyeva, D. TARJIMA MATNLARDA FRAZEMALARNING PROYEKSIYASI PROJECTION OF PHRASES IN TRANSLATED TEXTS. O ‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI.
6. Shamsieva Manzura Bababekovna. (2025). COGNIOTYPES OF LANDSCAPES IN THE EPIC “LISON UT-TAYR” BY ALISHER NAVOI. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 12(02). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/2580>
7. Sirojiddinov, S., & Normurodova, N. (2019). Pragmatics and Cognition: Intention and Conceptualization in Discourse. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 9(1), 2888-2893.
8. Vafo, Muhayyo - Orazova, Iqbol. “ALİ ŞİR NEVÂÎ’NİN “LEYLİ VE MECNUN” MESNEVISİNDE DİNÎ TASAVVURLARIN ‘CAN’ MERKEZLİ DEYİMLERİN OLUŞUMUNA ETKİSİ”. *Türk Kültürü ve Hacı Bektaş Veli Araştırma Dergisi*. 115 (September 1, 2025): 601-614. <https://doi.org/10.60163/tkhcbva.1614109>.
9. Turdievna, K. Z., & Tursunaliyeva, A. M. (2023). Problems of Understanding and Translating Homonyms in the Artificial Intelligence System. *INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS*, 2(5), 63-67.
10. K M. Thematic groups of lexical units in "Kutadgu bilig" Open Access journal of Science. MedCrave. 2 (Issue 2), P146-148
11. MAVLYANOV, S. (2023). SEMANTIC CLASSIFICATION OF UZBEK DIPLOMATIC TERMS. *UZBEKISTAN: LANGUAGE AND CULTURE Учредители: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o ‘zbek tili va adabiyoti universiteti*, 4, 83-101.
12. MUHAMMADIYEVA, D. (2025). “BOBURNOMA” MATNI O ‘ZBEKCHA-TURKCHA-QOZOQCHA PARALLEL KORPUSINING TARJIMAGA ASOSLANGAN EKSTRALINGVISTIK VA INTRALINGVISTIK MA’LUMOTLAR BAZASI. «ACTA NUUZ», 1(1.12), 312-315.
13. Rahmatullayev, Sh., Mahmudov, N., Xolmanova, Z., O‘razova, I., & Rixsiyeva, K. (2022). O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Toshkent.
14. Shamsiyeva M. Bola nutqi rivojlanishining zamonaviynazariyalari. “Filologik ta’limni takomillashtirish muammolari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. T.: “Mumtoz so‘z” 2020.
15. Shukhrat, S. (2015). Mir Alisher Navoi and his Persian-language poetry. *European journal of literature and linguistics*, (2), 24-27.
16. Z Xolmanova. [TILNING MA’LUMOTLARNI SAQLASH VA YETKAZISH FUNKSIYASI.](#) – Conferences, 2025